

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona shahrini rivojlanish tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	464
ADABIYOTSHUNOSLIK	
N.M.Uluqov, N.Siddiqova	
She'riy nutqda toponimlarning qo'llanishi va vazifalari.....	470
M.M.Rakhmatova	
Amerika adabiyotida implikaturaning stilistik vositalar orqali ifodalanishi tahlili	475
Sh.B.Xo'jayeva	
Alisher navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida qofiya sathi va asar poetikasi o'ttasidagi bog'liqlilik	479
R.R.Mamatov	
Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari	483
D.M.Uralova	
Ulug'bek Hamdam hikoyalarida tasviriy ifoda va vositalarning o'rni.....	486
N.A.Saidova	
Klyuisning "Narniya yilnomalari"da bolalar fentezi an'analari	489
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	493
U.Q.Muminova	
"Mahbub ul-qulub" dagi turkiy so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabati.....	497
M.Q.Narziqulov	
Hozirgi davr tojikzabon ijodkorlarning g'azal janrinirivojlanishidagi roli	502
M.Abdullayeva	
Shoir Hayratiy "Sayohatnoma"sining lingvokulturologik tahlili va tadqiqi	512
N.Y.Xolmatova	
Badiiy publisistikaning muhim xususiyatlari	515
Y.I.Nishanov	
Masal (hikoya) janrining asli xususiyatlari	520
Sh.K.Xashimova	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar	523
Q.Sh.Kaxarov, S.Mustafoyeva	
O'zbek va nemis tillarida sen/siz murojaat shakllari	527
B.I.Dexqonov	
Binokorlik terminlarining o'quv jarayonidagi kommunikativ omillari	531
N.A.Rasulova	
Lingvistikada funksional tahlilni tavsiflash	535
M.A.Xusenov, Sh.A.Zoitova	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigag xatoliklar (koreys tili misolida)	540
G.Xonkeldiyeva	
Rus tilida padej kategoriysi tavsifi va undagi muammolar	543
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati	546
N.Y.Ortiqova	
O'zbek tilida zidlanuvchi vositalar poetikasi	550
M.M.Abdulxayeva	
Tilshunoslikda sinonimianing o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari	556
N.T.Mutodov	
O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlar va grammatik kategoriylar	560
Q.Sh.Kaxarov, M.Y.Abdurazzakova	
Shaxslararo muloqotda noverbal muloqotning ahamiyati	567
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktining lingvopragmatik xususiyatlari	570
G.Yusupova	
Nemis va o'zbek tillari turg'un birikmalarida genderning ifodalanishi	574

FARG'ONA SHAHRINI RIVOJLANISH TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ГОРОДА ФЕРГАНЫ (КОНЕЦ 19 ВЕКА – НАЧАЛО 20 ВЕКА)

FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE CITY OF FERGANA (LATE 19TH CENTURY - EARLY 20TH CENTURY)

Abdugaffar Sharafiddinov¹

¹Abdugaffar Sharafiddinov

– Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.n.

Annatatsiya

Maqolada arxiv xujjalari, statistik ma'lumotlar hamda o'rganilayotgan davr adabiyotlari asosida Farg'ona shahriga asos solingandan so'ng rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi kabi masalalari taxlil qilib berilgan. Shuningdek, shaharda olib borilgan obodonlashtirish ishlari ham orginal materiallar asosida ko'rsatib berilgan.

Аннотация

В статье на основе архивных документов, статистических данных и литературы изучаемого периода анализируются такие вопросы, как развитие города Ферганы после его основания, рост населения. Также на основе оригинальных материалов показаны работы по благоустройству, проводимые в городе.

Abstract

The article analyzes issues such as the development of the city of Fergana after its foundation, population growth, based on archival documents, statistical data, and the literature of the studied period. Also, the improvement works carried out in the city are shown on the basis of original materials.

Kalit so'zlar: Harbiy gubernator, uyezd, politsiya boshlig'i, politsmeystr, savdogar, hunarmand, qochoqlar, harbiy asirlar, desyatina, sajen, verst, bulvar, prospekt, ixota zonasi, trotuar.

Ключевые слова: военный губернатор, уезд, исправник, исправник, купец, ремесленник, беглецы, военнопленные, десятина, сажень, верста, бульвар, проспект, анклав, тротуар.

Key words: military governor, district, police chief, police chief, merchant, craftsman, fugitives, prisoners of war, desyatina, sajen, verst, boulevard, avenue, enclave, sidewalk.

KIRISH

Podsho Rossiyasining Qo'qon xonligini xarbiy kuch, zo'ravonlik, bosqinchilik bilan bosib olishi va shu hududda uzoq yillar mobaynida mustamlakachilik tartiblarining o'rnatishi va bu siyosatni davom ettirish rejasiga o'zining tayanch punktlaridan bo'lgan Farg'ona shahriga asos solinishiga olib keldi va bu maqsadni amalga oshirdi.

Farg'ona shahri 1877-yildan boshlab viloyat harbiy gubernatori nazorati ostida Marg'ilon uyezdi boshlig'i tomonidan boshqarila boshlandi.

Turkiston general-gubernatori Kaufmanning 1879-yil 2-apreldagi buyrug'iga binoan Farg'ona shahrini boshqarish maqsadida shahar xo'jaligi boshqarmasi tuzilgan va uning nizomi tasdiqlangan.[7.30]

Shahar xo'jaligi uyezd boshlig'i tomonidan shahar xonadonlari saylagan deputatlar ishtirokida boshqarib borilgan. Lekin asosan mulkdor kishilardan iborat bo'lgan deputatlarning roli hukumat amaldorlarining topshiriqlarini bajarishdan iborat bo'lgan xolos.

Shu tariqa Farg'ona shahri 35-yil davomida uyezd boshlig'i tomonidan idora qilinib kelindi. Ammo, XX asr boshlariga kelib shaharda sanoat korxonalari, savdo va madaniy tarmoqlar ancha kengayganligi, aholi ko'payib shahardagi xonadonlar soni 2005 taga yetganligi ayni paytda uyezd boshlig'i uchun shahar xo'jaligini boshqarish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirayotganligi sabab qilib ko'rsatilib, 1913-yil 21-martda Skobelev uyezdining boshlig'i viloyat xarbiy gubernatoriga yozgan raportida shahar jamoatchiliqi shaharni o'z-o'zini boshqarishga o'tkazishni va shahar xo'jaligini boshqarish uchun alohida boshliq tayin etishni talab qilayotganligi ko'rsatilgan. [9.11.74]

Ta'kidlash lozimki, shahar aholisi soni sekinlik bilan bo'lsa-da, o'sib borgan. Masalan, shahar aholisi 1888-yilda 3149 kishini, 1900-yilda 6518 kishini, 1910-yilda 11354 kishini tashkil

TARIX

etgan bo'lsa, 1913-yilda 13218 kishini [7.16], 1916-yilda esa aholining soni 16023 nafarni tashkil etgan. [12.17]

Shahar aholisi turli sinf va toifalardan iborat edi. Masalan, 1900-yilda Farg'onda yashovchi 6518 kishidan 1095 kishi dvoryan va faxriy grajdnlardan, 45 kishi savdogarlardan 802 kishi meshchanlardan 4486 kishi esa oddiy fuqarolardan iborat bo'lgan. [7.16]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shahar aholisi mahalliy aholi bilan birga Rossiyaning ichki rayonlаридан ko'chirilgan va birinchi jahон urushi yillardа ko'chib kelgan kishilar hisobiga ham ko'payib borgan. Masalan, Penza gubernasidan ko'chirilgan rus dehqonlарining dastlabki gruppaları Farg'onaga 1891-yil 20-avgustda kelgan. Shu yil dekabr oyida ularning soni 72 kishiga (20 xo'jalik) yetgan. [2.12]

Shahar politsiya boshlig'ining 1891-yil 8-dekabrdan harbiy gubernatorga yuborgan ma'lumotida ko'rsatilishicha shahar aholisining soni ko'chib keluvchilar hisobiga ko'payib borayotganligi sababli, ularni joylashtirishda, ish bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklар yuz bergan, bozorlarda narx-navo oshgan, ko'chalarda ishsizlar soni ko'paygan. [41.1898-57] Shu munosabat bilan shahar ma'murlari Farg'ona viloyatiga ko'chirma qilinganlarni shaharga kelishini vaqtincha to'xtatib turishni so'ragan. [10.1]

Shaharda yashovchi mahalliy mehnatkashlarning ko'pchiligi yerdan ajralgan dehqonlardan iborat bo'lib, ular orasida o'lkaning boshqa joylaridan, jumladan Buxorodan ko'chib kelgan xo'jaliklar va yakka shaxslar ham bor edi. Chunonchi, 1899-yilda Farg'ona politsmeystriga buxorolik 320 ta oila va 500 ga yaqin yakka shaxslar shaharda uy qurishga ruxsat so'rab ariza berilgan. Ularning ko'pchiligi savdogar va hunarmand kosiblардан iborat bo'lgan. [10.2]

Uzoq yillar davomida Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy taraqqiyot masalalari bilan shug'ullangan V.V.Zaorskaya va K.A.Aleksanerlar Farg'ona viloyat aholisini soni 1914-yil 1-yanvarga kelib 2 182 374 kishini, jumladan shahar aholisining soni 420182 kishini yoki viloyat bo'yicha jami aholi soniga nisbatan 19,3 foizni tashkil etganligini ko'rsatib, ayni paytda Marg'ilon uyezdida shahar aholisining salmog'i eng oz ekanligiga ham e'tiborni jaib qilganlar. Uyezddagi ikki shahar (Marg'ilon va Farg'ona)da jami uyezddagi aholining faqat 12,4 foizi yashagan. [3.76]

1915-yildan boshlab Turkiston o'lkasiga, jumladan Farg'ona viloyatiga urush bo'layotgan rayonlardan qochoqlar ko'chib kela boshlagan. Shu yili 21-oktabrga kelib bunday kishilarning soni Farg'onada 8918 kishini tashkil etgan. [11.62]. Shaharda qochoqlar ishi bilan shug'ullanuvchi maxsus komitet tuzilgan. Ularning ko'pchiligi harbiy kazarmalarga va 68 shaxsiy xo'jaliklarga qarashli uylarga joylashtirilgan. Qochoqlarning ko'plab kelishi shaharda katta qiyinchiliklarni vujudga keltirgan. Uy-joy, ish bilan ta'minlash qiyin bo'lgan. Meditsina xizmati yaxshi ko'rsatilmaganligi natijasida qochoqlar o'rtasida tif, bezgak va boshqa yuqumli kasalliklar ko'p tarqalgandi. [11.107]

Shuningdek, Farg'onaga 14 ming harbiy asir ham joylashtirilgan. Harbiy asirlarning kelishi shahardagi vaziyatni yanada jiddiylashtirdi. Farg'ona viloyati gubernatori "Kutilmaganda shahar grajdan aholisidan 2,5 barobar ko'p harbiy asirlarning kelishi, shaharni juda og'ir ahvolga solib qo'ydi"-deb yozgan edi. [1.542].

Farg'ona shahri bo'yicha tuzilgan ma'lumotlarga ko'ra 1916-yil 15-dekabrdan shahar xududi 850 desyatina bo'lib, bundan 232 desyatinasini xususiy uylar, 184,5 desyatinasini ko'cha va maydonlar, 74 desyatinasini davlat va jamoat binolari, 239 desyatinasini harbiy qismlar band qilgan. Foydalanish uchun ajratilgan yer 56 desyatinani, poda boqish uchun ajratilgan o'tloq 35 desyatinani tashkil etgan. [12.17]

1916-yil 1-yanvargacha bo'lgan ma'lumotga ko'ra, shaharda 16023 kishi yashagan. Ulardan 9500 kishi ruslar, 5850 kishi o'zbeklar va boshqa mahalliy aholi, 10 kishi hindlar, 110 kishi yahudiyalar, 538 kishi esa kavkazliklar bo'lgan. [12.107]

Shahardagi xususiy sanoat, savdo-hunarmandchilik korxonaları, do'konlarning jami miqdori 1051 tani tashkil etgan. [12.78].

Ta'kidlash lozimki, yangi qurilgan viloyat markazining obodonchilik ishlariga ham katta e'tibor qaratilgan. Chunonchi viloyat boshqarmasining 1877-yil 22-yanvardagi 285-yozishmasiga ko'ra Marg'ilon uyezdi boshlig'i zimmasiga yangi quriladigan shahar o'rnidagi bog' va daraxtlarni saqlab qolish choralarini ko'rish, xususiy uylar qurish uchun shahar atrofidagi daraxtlarni sotib olish va kesishni qat'ianan taqiqlash yuklangan. [13.1]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaharni ko'kalamzorlashtirish maqsadida 1877-yilda shahar territoriyasida tashkil etilgan ko'chatzorlar muhim rol o'ynagan. Bu maqsad uchun 16 desyatinden ko'proq yer ajratilgan. [14.1]. Bu yerda ishslash uchun maxsus ma'lumotli mutaxassislar yetishmagan. Chunki Podsho hukumati mahalliy aholidan mutaxassis kadrlar tayyorlash ishiga umuman ahamiyat bermasdi. Shu sababli general-gubernatorning roziligi bilan chet eldan agranom Karl Kapman Farg'onaga ishga taklif qilingan. [14.96].

Farg'onadagi ko'chatzorlar 10 yil davomida vodiyyagini shaharlarga, shuningdek Toshkent va Turkiston o'lkasidagi boshqa shaharlarga ham mevali, mevasiz daraxt ko'chatlari yetkazib berib turgan. Ko'chatzorlar ilmiy markaz vazifasini ham bajargan. Chunonchi, unda Verniy (hozirgi Olmaota) shahridan yuborilgan 6 praktikant o'quvchi bog'dorchilik ilmini o'rgangan. [15.8].

Shaharni ko'kalamzorlashtirish 1877-yil kuzdan boshlangan. O'sha yil noyabr oyida planlashtirilgan markaziy ko'chalar o'rnini har ikki tomoniga, 2660 sajen masofaga ikki qatordan 10600 tup daraxt ko'chatlari ekilgan. Har bir ko'chatga ekip berish bilan birga 20 tiyindan, jami 2120 so'm pul sarflangan. [16.1]. Ekilgan daraxtlar tol, terak, qayrag'och va chinordan iborat bo'lgan.

1879-yil aprel oyida Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan shaharda harbiy lager bilan shaharni ajratib turadigan Farg'ona prospektini qurish, uning har ikki tomonga daraxtlar ekish, bulvarlar barpo qilish haqida qaror qabul qilingan.

Bu prospekt Toshkent, Samarcand, Maxram prospektlarini va Qo'qon ko'chalarini kesib o'tgan. Prospekt qurishda va uning yonida bulvarlar barpo qilishda 935 mardikor ishlagan. Ularga kuniga 35 tiyindan haq to'langan. [17.19-20]

1879-yil 22-sentabrda Farg'ona viloyat boshqarmasi texnik xodimlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda viloyat injeneri Lexanov loyihasi bo'yicha shaharning janub tomonidan esadigan shamol va changlarni to'sish maqsadida ixota daraxtlari ekish va bu orqali ixota zonasini vujudga keltirishga qaror qilingan. Bu ish viloyat o'rmon xo'jaligining mudiri Deysh rahbarligida 1880-yil mart-aprel oylarida amalga oshirilgan. Shaharning janub tomonida jami 1283 sajen masofaga 20 qator qilib, 38480 tup terak va tol ko'chatlari ekildi. Ixota zonasini vujudga keltirishda podryadchi To'xtaboyev tomonidan yollangan 779 kishi ishlagan va ularga kuniga 35 tiyindan haq to'langan. [18.36-37]

Farg'ona shahrini suv bilan ta'minlash va meliorativ holatini yaxshilash ishiga ham e'tibor berilgan.

Shu maqsadda viloyat boshqarmasining topshirig'i bilan injener Jilin 1878-yil may oyida shaharning suv bilan ta'minlovchi xususiyatlarini, yer osti suvlarining kichik chuqurlikda ekanligi va tuproq tarkibini tekshirib chiqqan.

Shahar ko'chalariga tosh yotqizish 1877-yil kuzdan boshlangan. Lekin o'sha yili qish qattiq kelganligi sababli boshqa qurilish ishlari kabi bu ish ham vaqtinchada to'xtatilgan. [42.№21]. 1878-yil fevral oyi oxirlaridan boshlab bu ish yana davom ettirilgan. Toshkent prospekti bilan viloyat boshqarmasi oralig'idagi cherkov ko'chasiga (300 sajen masofaga) tosh yotqizilgan. [19.1].

Shahar ko'chalariga tratuar yotqizish ishi vodiyya birinchi bo'lib Farg'ona shahrida amalga oshirilgan. Bu ish 1900-yil mart oyida boshlanib, 1901-yil oktabr oyida tugatilgan. [21.175]. Trotuarlarni shahar ma'muriyatining majburiy farmoniga ko'ra politsiya nazorati ostida shaharda yashovchi xonadonlar o'z hisoblariga yotqizganlar.

Shahardagi yakka tartibdagi uylarning belgilangan qoidaga muvofiq qurilishi qattiq nazorat qilib borilgan. Chunonchi, uy qurishda mavjud qoidani buzgan kishilar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Uy qurish uchun yer uchastkasi olganlardan 38 kishiga (shulardan 14 kishi mahalliy aholi) uyni o'z muddatida (muddati 2 yil) qurib bitkazmaganliklari uchun ularning uchastkalarini boshqalarga sotib yuborish haqida shahar ma'muriyati tomonidan qaror chiqarilgan. [22.1]

Farg'ona shahar territoriyasi ham birmuncha kengayib bordi. Masalan, shahar territoriyasi 1877-1878 yillarda 852 desyatini tashkil etgan bo'lsa, 1881-1907 yillar ichida mahalliy aholining shahar chetidagi yerlaridan 242 desyatina yer sotib olinib, shahar territoriyasiga qo'shildi. [34.191]

Umuman 1904-yilda shaharda qurilgan binolar 998 ta bo'lib, ulardan ikkitasi yog'ochdan qurilgan uylar, 5 tasi tosh ishlatib qurilgan uylar, 798 tasi hom g'ishtli uylar va 193 tasi mahalliy

TARIX

tibda qurilgan imoratlar edi. Shahardagi binolardan 149 tasini tomi tunuka bilan qoplangan, qolgan 849 ta uyning tomi esa loy bilan suvalgan edi.

Shahardagi mavjud 43 ta ko'chaning uzunligi 19784 sajenni tashkil etib, shundan 11231 sajeniga tosh yetqazilgan. [35.1,2].

1915-yil 15-martdan boshlab, temir yo'l vokzali atrofida yangi ko'chalar va uylar qurishga kirishildi. Bu ishlarni bajarishda shaharga keltirilgan harbiy asirlar kuchidan ham foydalanilgan. [26.28].

Ma'lumki, Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin ekonomikaning barcha sohalari kabi yo'l qurish va aloqa vositalarini yo'lga qo'yish sohasida ham birmuncha tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O'rta Osiyon Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bevosita bog'lovchi temir yo'llarini qurib ishga tushirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi, bu temir yo'llar iqtisodiy va harbiy strategiya maqsadlarni nazarda tutib qurilmoqda edi. [1.61].

1895-yil 25-mayda Samarqanddan Qo'qon va Farg'ona orqali Andijonga temir yo'l magistrali o'tkazish haqida hukumat farmoni e'lon qilindi. [27.1] va buning uchun 21080607 so'm mablag' ajratildi. [36.1]. Temir yo'l qurish ishlari injener Ursatyev rahbarlik qilgan. Lekin qurilish jarayonida temir yo'l boshqarmasi magistral yo'lni Farg'onadan 8 vsret shimoldan o'tishi maqsadga muvofiq ekanligini, bu orqali 315 000 so'm mablag' tejab qolinishini hisobga olib, temir yo'l qurish loyihasini o'zgartirgan, ya'ni Samarqand - Andijon temir yo'l magistrali Qo'qon-Gorchakova stansiyasi marshruti bo'yicha 1899-yilda qurib bitkazilgan va 1 maydan ishga tushirilgan. [4.2].

Temir yo'lidan 8 verst uzoqlikda qolgan Farg'ona shahriga maxsus temir yo'l shahobchasi o'tkazildi. [36.61].

Viloyat harbiy gubernatori 1910-yilda imperator xukumatiga yozgan hisobotida viloyat markazi asosiy temir yo'l magistralidan chetda qolayotganligi, bu esa uning ekonomikasini rivojlanishiga salbiy ta'sir etayotganligi haqida gapirib, Fayziobod razyezdidan Farg'onagacha bo'lgan 22 verst masofaga rels yotqizib, shaharni asosiy temir yo'l magistraliga qo'shishni taklif qilgan. Lekin Chor hukumati bu taklifni rad etdi. Uning o'rniga viloyat markazini qaytadan yirik iqtisodiy markaz hisoblangan Qo'qon shahriga ko'chirish masalasini ko'rib chiqishni taklif qilgandi. Viloyat harbiy gubernatori o'z javobida shaharni kelajakda kengaytirish uchun Qo'qon yeri torlik qilishini, viloyat markazining Farg'ona shahrida bo'lishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib o'tdi. [28.16].

Bu o'rinda metropoliya ma'murlari kapital oborotini tezlatiish maqsadida Samarqand-Andijon magistralidan viloyatning turli rayonlariga temir yo'l shahobchalari qurishni loyihalashtirganliklarini ko'rsatib o'tish xarakterlidir. Chunonchi, Posetkovo stansiyasidan Yapan qishlog'igacha (15 verst), Serovo stansiyasidan Rishton orqali Chimyon qishlog'igacha (40 verst masofagacha) va Gorchakova stansiyasidan Baliqchi qishlog'igacha (53 verst masofaga) tor izli temir yo'l qurish loyihasi tuzilgan. Lekin birinchi jahon urushi boshlanib ketishi natijasida bu loyiha amalga oshmay qolgan. [38.4].

Garchi Farg'ona shahri asosiy magistral bilan temir yo'l shahobchasi orqali tutashgan bo'lsa-da Skobelev stansiyasi shaharni mamlakatning turli boshqa rayonlari bilan aloqa qilishda muhim rol o'ynagan. Masalan, Skoblevo stansiyasi orqali jo'natilgan passajirlar 1900-yilda 38215 kishini, kelagnlar 66 679 kishini, 1911-yil jo'natilgan passajirlar 170 466 kishini, kelganlar 196 408 kishini tashkil etgan. [5.86]. Shuningdek, stansiya orqali mamlakatning turli rayonlariga 1911-yilda 148,4 pud g'allá, 17,9 pud sabzavot, 108,1 ming pud chigit, 889,2 ming pud ko'mir, 225,2 ming pud paxta va boshqa xil tovarlar jo'natilgan. Ayni vaqtida temir yo'l orqali Farg'ona shahriga 798,3 ming pud bug'doy, 79,4 ming pud sholi, 53,8 ming pud sement, 233,5 ming pud qurilish materiali va juda ko'p boshqa xil tovarlar keltirilgan. [5.87].

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki Farg'ona shahrida ichki transport asosan izvoshlardan iborat edi. Shahar politsiya bo'lumi boshlig'ining axborotida ko'rsatilishicha, shahardagi Dadaboy Domlajonov, Ivan Kostichenko, Abram Maneta degan shaxslarning har birida 2 nafardan izvoshchi yollanib ishlagan. Petro Karandasov degan izvosh egasida esa 3 izvosh va 3 xaydovchi ishlagan. Kira haqi shaharni istalgan chekkasigacha oddiy izvosh uchun 20 tiyin, ressorli izvosh uchun 30 tiyin va izvoshni band qilganligi uchun soatiga 50 tiyindan belgilangan. [33.86]. Agar biz shahardagi oddiy fuqarolarni bir kunlik ish haqi 30-35 tiyindan iborat bo'lishini ko'z oldimizga keltirsak, shahar transportidan faqat mulkdor va amaldorlargina foydalanganligi ravshandir.

1914-yil iyul oyida “Ferganskoye exo” gazetasida Farg’ona va Marg’ilon shaharlari o’ttasida elektr energiyasi bilan harakat qiluvchi tramvay liniyasi qurish masalasiga oid maqola bosilgan. Tramvay liniyasi loyihasini Lipinskiy tuzgan. Lekin shahar xo’jaligi boshqarmasi mablag’ ajratmaganligi sababli loyiha amalga oshmay qolgan. [43.№1].

XULOSA

Umuman olganda, yuqorida ko’rsatilgan obodonchilik va transport – aloqa vositalarini rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan tadbirlar yangi qurilgan shahar ekonomikasining, madaniyat va ijtimoiy hayotning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Lekin bu chora-tadbirlarning hammasini Rossiya imperiyasi ma’murlari o’z qo’l ostidagi chinovniklar, harbiy xizmatchilar, boy-badavlat kishilar foydasi uchun qilgan edi. Farg’ona shahri mahalliy aholisi, kambag’al, batrak, chorakorlar bu yangiliklardan bebahra qolgandilar. Podsho hukumati ularning turmush sharoitlarini yaxshilash haqida o’ylab ham ko’rmasdi. Vaholanki, odatda shaharlar xalqning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hayotining markazlari va progressiv olg’a suruvchi kuch hisoblanadi.

O’rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin Qo’qon xonligi o’rnida, Farg’ona vodiyisida Podsho Rossiyasi mustamlakachilik ma’muriy-boshqaruvi tizimining markazi va tayanchi sifatida barpo qilingan Farg’ona shahri ham obyektiv ravishda ana shunday markazlardan biriga aylanib bordi.

Ammo u o’zining haqiqiy istiqbolini mustaqil O’zbekiston Respublikasi tashkil topgandan so’nggina topdi, serquyosh O’zbekiston Respublikasining sanoatlashgan, eng go’zal shaharlaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ўзбекистон тарихи. II том, Т.: Фан, 1971 –
2. Касаткин Переселенческое дело в Ферганской области. 1892.
3. Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Пг., 1915 –
4. Месееснер. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Т.: 1912.
5. Гулшамбаров С.И.Экономический обзор Туркестанского района, обслуживаемого Средне-Азиатской железной дорогой. Асхабад, 1913.
6. Ежегодник Ферганской области за 1902 г.
7. Обзор Ферганской области за 1899 г.
8. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 23659-иш.
9. ЎзР МА, 1-фонд, 16-рўйхат, 130-иш.
10. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 5964-иш.
11. ЎзР МА, 349-фонд, 1-рўйхат, 16-иш.
12. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 35173-иш.
13. ЎзР МА, 23-фонд, 1-рўйхат, 32-иш.
14. ЎзР МА, 1-фонд, 16-рўйхат, 1069-иш.
15. ЎзР МА, 19-фонд, 15-рўйхат, 323-иш.
16. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 148-иш.
17. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 343-иш.
18. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 294-иш.
19. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 2-иш.
20. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 246-иш.
21. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 35117-иш.
22. ЎзР МА, 504-фонд, 2-рўйхат, 423-иш.
23. ЎзР МА, 23-фонд, 1-рўйхат, 4-иш.
24. ЎзР МА, 1-фонд, 13-рўйхат, 990-иш.
25. ЎзР МА, 1-фонд, 13-рўйхат, 1033-иш.
26. ЎзР МА, 1-фонд, 13-рўйхат, 1073-иш.
27. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 262-иш.
28. ЎзР МА, 19-фонд, 1-рўйхат, 9262-иш.
29. ЎзР МА, 1-фонд, 28-рўйхат, 60-иш.
30. ЎзР МА, 19-фонд, 22-рўйхат, 821-иш.
31. ЎзР МА, 1-фонд, 11-рўйхат, 1243-иш.
32. ЎзР МА, 87-фонд, 1-рўйхат, 31645-иш.
33. ЎзР МА, 1-фонд, 16-рўйхат, 1640-иш.
34. СПб.МДТА, 1396-фонд, 1-рўйхат, 417-иш.
35. СПб.МДТА, 1290-фонд, 5-рўйхат, 203-иш.
36. СПб.МДТА, 1162-фонд, 12-рўйхат, 198-иш.
37. СПб.МДТА, 1152-фонд, 12-рўйхат, 195-иш.
38. СПб.МДТА, 350-фонд, 62-рўйхат, 819-иш.

TARIX

-
- 39. СПб.МДТА, 1396-фонд, 1-рўйхат, 415-иш.
 - 40. СПб.МДТА, 1290-фонд, 5-рўйхат, 213-иш.
 - 41. Русский Туркестан, 1898, №57.
 - 42. Туркестанские ведомости, 1879, №21.
 - 43. Ферганское эхо, 1914, №1.